QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

O’ZBEKISTONDA PENSIYA TIZIMI VA UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATISH BORASIDAGI TIZIMLI ISHLAR

https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.093

Xoliqov Arslonbek Xoliq o’g’li
Qarshi Davlat Unversiteti magistri
arslonxoliqov549@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida pensiya tizimini huquqiy jihatdan takomillashtirish hamda bu borada amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar tahlil qilinadi. Bunda asosan pensiya ta’minotining huquqiy bazasi, qolaversa “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonun hamda oxirgi yillarda qabul qilingan farmon hamda pensiya ta’minotiga doir qarorlarning mazmun-mohiyati yoritiladi. Asosan pensiya belgilash tizimini soddalashtirish, raqamlashtirish jarayonlari, ijtimoiy adolat va manzillilik tamoyillarini kuchaytirish kabi chora tadbirlar hamda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minlash, xorijiy tajribani o‘rganish asosida yangi texnologiyalarni tizimda qo’llash , pensiya tizimini yanada barqaror ishlashini ta’minlash, qolaversa huquqiy asoslarini mustahkamlash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so’zlar: Ijtimoiy yordam nafaqalari, Davlat byudjeti ,“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”, Milliy statistika qo‘mita, Pensiya jamg‘armasi, nogironlik pensiyasi, Raqamlashtirish.

Аннотация.В данной статье анализируется совершенствование законодательства в сфере пенсионного обеспечения в Республике Узбекистан и проводимые в этой области системные реформы. Рассматривается, главным образом, правовая база пенсионного обеспечения, а также Закон «О государственном пенсионном обеспечении граждан» и содержание указов и решений по пенсионному обеспечению, принятых в последние годы. В основном освещаются такие меры, как упрощение системы определения пенсии, цифровизация процессов, усиление принципов социальной справедливости и адресности, а также практические предложения и рекомендации по обеспечению финансовой стабильности пенсионной системы, внедрению новых технологий в систему на основе изучения зарубежного опыта, обеспечению более стабильного функционирования пенсионной системы и укреплению ее правовой базы.

Ключевые слова: Социальные пособия, Государственный бюджет, «О предоставлении государственных пенсий гражданам», Национальный статистический комитет, Пенсионный фонд, пенсия по инвалидности, Цифровизация.

Kirish. Xalqaro maydonda aholini ijtimoiy himoyalash har qanday demokratik huquqiy davlatning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Pensiya tizimi esa ijtimoiy ta’minotning muhim qismi bo‘lib, fuqarolarning keksalik, nogironlik yoki boquvchisini yo‘qotganlik darajasidagi aholini hayot kechirishini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning ilk yillarida pensiya tizimini shakllantirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtrish hamda zamonaviy talablarga mos keluvchi tizimga doir keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Ushbu maqolada O‘zbekistonda pensiya tizimining rivojlanish bosqichlari, uning normativ-huquqiy asoslari, oxirgi yillardagi islohotlar hamda kutilayotgan rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Jamiyatda fuqarolarning tinch-farovon yashash tarzini ta’minlab beruvchi yo’nalishlardan biri ijtimoiy himoya tizimi. So‘nggi yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya sohasiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar miqdorini oshirish va qo‘shimcha resurslarni jalb qilish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish va oilalarni og‘ir hayotiy holatlardan olib chiqishga qaratilgan qo‘shimcha mexanizmlarni joriy etish yo‘nalishlarida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy yordam nafaqalari - odatda umumiy soliq tushumlaridan moliyalashtiriladi va yordamga muhtoj kishilarga ularning daromadini yoki moddiy holatini baholash asosida kam ta'minlangan shaxslarga to‘lanadigan nafaqa shaklida to‘lanadi.

Shuning uchun ham O’zbekiston hukumati mazkur muammolarni hal etishga alohida e’tibor qarata boshladi. O’zbekiston Respublikasi hukumati mustaqillikka erishilgan kundan boshlab aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlashga kirishdi.

1990-yillar oxirlaridan boshlab pensiya tizimi O‘zbekiston sharoitiga moslashtirila boshlangan. Hukumat topshirig’iga binoan 1991-yilning noyabrida O’zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta’minot vazirligiga o’z tasarrufidagi holatni bir oy muddatda chuqur tahlil etish va sohani rivojlantirish bo’yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishni topshirdi. Eng avvalo, pensiya ishida islohotlar o’tkazish, kam ta’minlangan oilalar, nogironlar ustidan g’amxo’rlik qilish vazifalarn belgilandi.[1]

O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minotining huquqiy poydevori Konstitutsiyada belgilab berilgan bo‘lib, Pensiya tizimining asosiy normativ-huquqiy hujjati — “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonundir.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **39-modda**sida “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo’qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo’lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo’yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo’lishi mumkin emas”, deyiladiPensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo’yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo’lishi mumkin emas”, deyiladi.[2]

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonuni 03.09.1993-yilda 938-XII-son qabul qilinib keyinchalik bir qancha o’zgartirishlar bilan takomillashtrilgan . Qonunda davlat pensiya ta’minoti tizimi ,pensiya turlari (yoshga doir ,nogironlik ,boquvchisini yo’qotganlik pensiyalari) , ularning tayinlanishi , miqdori ,to’lanishi ,shartlari va tartiblari belgilangan . Mazmuni asosan pensiya olish va hyjjat talab etilishi , pensiya yoshlari ,pensiya turlari ,imtyozli pensiya shartlari,pensiyani hisoblash va to’lash tartibi , tashkiliy tartib va nazorat qoidalari belgilab berilgan .[3]

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 iyundagi “Bolalikdan nogironlarga, qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to’lash tartibi to’g’risida”.[4] gi 319- son qaroriga asosan ijtimoiy pensiyalar bekor qilinib, ish stajiga ega bo’lmagan fuqarolar uchun ijtimoiy nafaqalar joriy etildi. 1997-2000 yillarda Pensiya jamgarmasi mablag’lari Davlat budjeti tarkibiga birlashtirildi hamda Pensiya jamgarmasiga davlat maqsadli jamgarmasi maqomi berildi.

2004 yilda viloyatda nafaqa oluvchilarning umumiy soni 224,7 ming kishi tashkil etgan, shundan yoshga doir nafaqa oluvchilar 148,4 ming kishi, nogironlik nafaqasini 56,6 ming kishi, boquvchisini yuqotganlik bo‘yicha nafaqani 19,7 ming kishi olgan. 2006 yilga kelib, viloyatda nafaqa oluvchilarning umumiy soni 232,8 ming kishi tashkil etgan, shundan yoshga doir nafaqa oluvchilar 156,2 ming kishi, nogironlik nafaqasini 56,5 ming kishi, boquvchisini yuqotganlik bo‘yicha nafaqani 20,1 ming kishini tashkil qilgan. 2004 yilda o‘rtacha nafaqa miqdori 20046 so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2006 yilda 37548 so‘m bo‘lgan.[5]

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasida pensiya oluvchilarning umumiy soni 4,2 mln kishini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 93,9 ming kishiga yoki 2,3% ga oshgan.

Pensiya oluvchi shaxslar soni yillar kesimida quyidagicha:[6]

2020-yilda – 3 612,6 ming nafar

2021-yilda – 3 785,3 ming nafar

2022-yilda – 3 976,9 ming nafar

2023-yilda – 4 152,6 ming nafar

2024-yilda – 4 246,4 ming nafar.

Bu ko‘rsatkichlar pensiya oluvchilar sonining 2020 yildan 2024 yilgacha taxminan 17,7%ga oshganini ko‘rsatadi, bu esa demografik o‘sish va ijtimoiy himoya siyosatining roli kuchaygani bilan izohlanadi. 2025 yil aprel holatiga ko‘ra, aholining umumiy soni 37,69 million kishini tashkil etayotgan bo‘lsa, pensiya oluvchilar soni 3,46 million atrofida (taxminan 9%) deb baholangan. 2024 yil hisobotlariga ko‘ra, umumiy pensiya oluvchilar soni taxminan 4,2 million kishini tashkil etadi. Ushbu shaxslarning 79 % pensiyalarni bank kartalari orqali oladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash bo‘yicha davlat xizmati sifatini oshirish, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlari manzilliligini va samaradorligini

oshirib borish, shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2021-yil 29-oktabrdagi (O‘RQ-726-son) qonuniga muvofiq quyidagilar nazarda tutilgan pensiya hisoblashda 2005-yil 1-yanvardan avvalgi davrlar uchun ish staji shaxsning faqat mehnat daftarchasidagi (elektron mehnat daftarchasidagi) mavjud yozuvlar asosida tasdiqlovchi hujjatlar talab etilmasdan belgilanishi, pensiya shaxsning tanloviga ko‘ra uning doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi tomonidan to‘lanishi, tekshirish (o‘rganish) o‘tkazish boshlangan sanadan avvalgi uch yil va undan ortiq davrda tayinlangan va (yoki) qo‘shimcha taqdim etilgan hujjatlarga binoan qayta hisoblangan pensiyalarning tekshirilishiga (o‘rganilishiga) hamda ular bo‘yicha to‘langan ortiqcha summalarning ushlab qolinishiga (undirilishiga) yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo’yilgan . Bu kabi choralar ortiqcha qog’ozbozlikni oldini olish va fuqarolarga yengilliklar yaratish borasida muhim qadam bo’lib xizmat qildi. Raqamlashtirish borasidagi ishlar Pensiya tayinlash va to‘lash jarayonlari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Fuqarolarning mehnat staji hamda ish haqi haqidagi ma’lumotlar elektron bazalarda shakllantirilmoqda. Bu o’z navbatida inson omilini kamaytirish hamda shaffoflikni oshirishga xizmat qilmoqda.

“Fuqarolarning va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari kafolatlari yanada kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2022-yil 9-fevraldagi (O‘RQ-752-son) .Qonuniga muvofiq vafot etgan boquvchining mehnatga layoqatsiz farzandlari uchun 18 yoshga qadar, agar ushbu farzandlar ta’lim tashkilotlarining o‘quvchisi yoki talabasi bo‘lib hisoblansa, o‘qishning butun davri davomida, biroq 23 yoshga to‘lguniga qadar boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi to‘lanishi, shaxsning bolani parvarishlash bilan band bo‘lgan 6 yillik ta’til vaqti pensiya hisoblashda ish staji sifatida inobatga olinishi, O‘zbekiston Respublikasi hududida inson uchun xavfli bo‘lgan yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishi va tarqalishi munosabati karantin joriy etilgan vaqtda shaxsga pensiya tayinlash muddati shaxsning karantin davrida pensiya olish huquqi paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab tayinlanishi belgilab qo’yilgan . Ijtimoiy sohadagi bu kabi uzoqni ko’zlab amalga oshirilayotgan ishlar davlatning fuqarolar turmushini yaxshilashga va ularning hayot kechirish darajasini oshirish yo’lidagi samarali choralar sifatida ko’rishimiz mumkun. Pensiya tayinlash tartibini soddalashtirish borasidagi choralar sirasiga ilgari pensiya tayinlash uchun ko‘plab hujjatlar talab etilgan bo‘lsa, hozirgi kunda ma’lumotlarning aksariyati idoralararo elektron almashinuv orqali olinmoqda. Bu esa fuqarolar uchun yengiliklar yaratilmoqda hamda pensiya tayinlash muddati qisqartirilmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida” 2022-yil 17-maydagi(O‘RQ-770-son) Qonuniga muvofiq shaxsni nogironligi bo‘lgan shaxs deb topish tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan aniqlanishi belgilab

qo’yilgan. Bundan tashqari “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida” 2022-yil 19-sentabrdagi O‘RQ-791-son O‘zbekiston Respublikasining qonunlari ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorida ko’rsatilishicha 2023-yil 1-yanvardan boshlab pensiyalarni hisob-kitob qilish uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o‘n ikki baravaridan kelib chiqib hisoblanishi belgilanishi ko’rsatilgan.[7]

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda takidlash lozimki, ijtimoiy himoya davlatning inson hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy va huquqiy kafolatlar yig’indisini tashkil etadi. Respublikada, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muxtoj aholi toifalari ham belgilangan bo’lib, ular quyidagilardan iborat: nogironlar, fahriylar, ko’p bolali oilalar, kam ta’minlanganlar, yetim-yesirlar, muxtoj kimsalar, yolg’iz qariyalar, pensionerlar, yosh bolali onalar. Shuni ta’kidlash lozimki, bunday toifadagi fuqarolar har doim ham har kanday jamiyatda ham ijtimoiy ta’minotga muhtojlik sezadilar. Bulardan kelib chiqqan holda O’zbekiston Respublikasida ijtimoiy muhofazaning tarkibiy kismlari shakllangan bo’lib, ular quyidagilardan iborat: -mehnatga layoqatlilar uchun ish joylari tashkil etish (ishsizlikdan muhofaza qilish); -Mehnatga layoqatsiz bo’lib qolganlar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy zaif guruhlarini nafaqalar-mehnat faoliyatidan olingan daromad yoki nafaqa asosida munosib turmush darajasini ta’min bu asosiy moddiy boyliklar, eng avvalo, ozik-ovqat maxsuloti iste’moli ham kiritiladi); -turar-joy, madaniy-maishiy sog’liqni caqlash, xizmatlarini minimal meyorda ta’minlash; -zamonaviy malakali ishchi kuchini shakllantirish uchun zarur bo’ladigan ma’lumot olish.[8]

Mustaqillik yillarida ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta’minot siyosati o’zining ijobiy jihatlarini ko’rsatdi. Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni taminlash, keskaya tabaqalanishga to’siq qo’yish imkoniyatiga ega bo’lindi. Shuningdek, eng kam ish haqqi -pensiyadardan soliq olinmaydigan bo’lindi, zavod, fabrika va boshqa ishlab chiqarish muassasalarining o’z xodimlariga ijtimoiy yordam ko’rsatish sohasidagi xarajatlaridan bir qismi budjet mablag’lari hisobidan qoplanib turildi. Eng muhimi mamlakatda keng iste’mol mollari va xizmatlarning ko’pgina qismi bo’yicha narxlardagi tafovutlarning o’rni qoplandi.

Pensiyalarni to‘lash tartibi;

Ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalarni yashab turgan joydagi Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari to‘laydi. Ishlayotgan pensionerlarga pensiya ish joyida to‘lanadi. Pensionerlarga pensiya ularning xohishiga ko‘ra doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joydagi Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari tomonidan pensiyani etkazib berish (topshirish) yuklangan tashkilot orqali naqd pulda yoki pensionerning xohishiga ko‘ra pul mablag‘larini bank kartasiga naqd pulsiz o‘tkazish yo‘li bilan tijorat bankining filiali orqali to‘lanadi.

Umumiy kasallik oqibatida nogironlik pensiyasi nogironlik boshlangan vaqtda nisbatan quyidagi ish staji mavjud bo‘lganda tayinlanadi:[9]

Yosh	Ish staji (yillarda)
20 yoshdan 23 yoshga yetgunga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshga yetgunga qadar	3
26 yoshdan 31 yoshga yetgunga qadar	5
31 yoshdan 36 yoshga yetgunga qadar	7
36 yoshdan 41 yoshga yetgunga qadar	9
41 yoshdan 46 yoshga yetgunga qadar	11
46 yoshdan 51 yoshga yetgunga qadar	14
51 yoshdan 56 yoshga yetgunga qadar	17
56 yosh va undan katta yosh	20

Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylarida (pansionatlarda) yashovchi yolg‘iz pensionerlarga pensiya bilan ular ta’minoti uchun sarf-xarajat o‘rtasidagi farq, biroq tayinlangan pensiyaning kamida 20 foizi to‘lanadi. Ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun internat uylarida yashovchi pensionerlarga pensiya to‘lanmaydi. Pensioner ozodlikdan mahrum qilingan taqdirda tayinlangan pensiyani to‘lash ozodlikdan mahrum qilingan davr uchun to‘xtatib qo‘yiladi. Pensioner ozod bo‘lgandan keyin pensiyani to‘lash Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga ariza berilgan kundan boshlab tiklanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketgan fuqarolarga pensiyalar to‘lash; doimiy yashash uchun o’zbekiston Respublikasi tashqarisiga ketishgacha tayinlangan pensiya (O’zbekiston Respublikasi pensiya ta’minoti to’g’risida xalqaro shartnomalar tuzgan davlatlar bundan mustasno) Pensiya jamg’armasi bo’limiga ketish to’g’risida ariza berilgan kundagi pensiya miqdori hisob-kitobida kelib chiqib O’zbekiston Respublikasi tashqarisiga jo’natib jo‘nab ketishdan 6 oy avval O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida to‘lanadi. Pensiya to‘lanadigan olti oylik davr O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga doimiy yashash uchun arizada ko‘rsatilgan sanadan boshlab hisoblab chiqiladi, bunda ariza berilgan oyda hisoblangan (to‘langan) pensiya puli hisobga olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta’minoti to‘g‘risida xalqaro shartnomalar tuzgan O‘zbekiston Respublikasi tashqarisidagi davlatga doimiy yashash uchun ketilgan kungacha tayinlangan pensiya turar joyidan ro‘yxatdan chiqqan oyning oxirigacha to‘lanadi. Pensionerning vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiyani to‘lash va dafn etish uchun nafaqa to‘lash. Pensioner olishi lozim bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiya puli meros tarkibiga kiritilmasdan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi bilan ta’minlanadigan shaxslar doirasiga kiruvchi oila a’zolariga to‘lanadi. Ota-onasi, eri (xotini), shuningdek pensioner bilan u vafot etgan kunigacha birgalikda yashab turgan oila a’zolari bu pulni, ular boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi bilan ta’minlanadiganlar doirasiga kirmaganlari taqdirida ham olish huquqiga ega bo‘ladilar. Pensioner vafot etgan oy uchun olinmay qolgan pensiya puli ko‘rsatib o‘tilgan oila a’zolariga ushbu oy uchun to‘liq to‘lanadi.

Oilaning bir necha a’zosi murojaat etgan taqdirda pensiyaning ularga tegishli summasi ularning o‘rtasida teng taqsimlanadi.

Pensioner vafot etgan taqdirda uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o‘tkazgan shaxsga bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt barobarida dafn etish nafaqasi to‘lanadi. Ko‘rsatib o‘tilgan pullar, ularni olish uchun pensioner vafot etganidan keyin 60 (oltmish kun) ichida murojaat etilgan taqdirda to‘lanadi.

Muammolar haqida gapiradigan bo’lsak, Pensiya tizimining asosiy muammolaridan biri pensiya tizimining aholining to‘liq real ehtiyojlarini qamrab olishi uchun yana bir qator mexanizmlar shakllantirilishi talab etiladi. Bu borada asosan pensiya tizimida yosh va mehnat bozorining dinamikasiga moslashishini nazorat qilish hamda aholi o’sishini prognozlarga asoslangan uzoq muddatga mo’ljallangan byudjet loyihalarini ishlab chiqish.

Xulosa.O‘zbekiston Respublikasida pensiya tizimining huquqiy asoslarini yaratish borasida musaqillik yillarida samarali va tizimli ishlar amalga oshirildi. Oxirgi yillardagi keng ko’lamli islohotlar esa sohaning yangi pog’anaga olib chiqdi. Pensiya tizimini raqamlashtirish, shaffoflikni ta’minlash, ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslangan tizimni ishlab chiqish ,hamda uni kuchaytirish moliyaviy barqarorlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan choralar aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga samarali ta’sir etib kelmoqda. Qolaversa , pensiya tizimini modernizatsiya qilish, xorijiy tajribalardan foydalangan holda yangi texnologiyalarni tizimda qo’llash hamda demografik va iqtisodiy omillarni inobatgaga olgan holda barqaror tizimni ishlab chiqish murakkab vazifa sifatida ko’rish mumkun. Respublikada pensiya tizimi mustaqillik yillaridan boshlab tizimli takomillashtirib kelinmoqda. Huquqiy bazaning paydo bo’lishi , qonunchilikka kiritilgan yangiliklar hamda statistik ko‘rsatkichlarning ko’tarilishi pensionerlarga ijtimoiy himoya darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Tizimni bundanda barqaror hamda samarali qilish uchun qonun hujjatlarini kamchiliklardan holi etish, raqamlashtirishni chuqurlashtirish va xalqaro tajribani moslashtirish yo‘nalishlarida bir qancha ishlar qilinishi zarur .

Adabiyotlar:

1. O‘zR MDA.M-44-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 15-varaq.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -Toshkent: O‘zbekiston, 2008 -B.10.
3. https.//lex.uz/uz/doc
4. 319-son 24.06.1994. Bolalikdan nogironlarga, qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to’lash tartibi to’g’risida (lex.uz).
5. Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси жорий архиви. 2004.й.
6. https;//xorazmstat.uz/uz/matbuot-markazi/boshqarma -yangiliklari/18761
7. https://lex.uz/acts/-6236060
8. Ijtimoiy himoya yili Mazmun va mohiyat, - Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007-.B.32.

https://lex.uz/acts/-6236060